




GENDER TENGLIK JAMIYAT RIVOJINING MUHIM ASOSLARIDAN BIRIDIR



2024-yilning 23-sentabr kuni “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda Osiyo taraqqiyot banki mutasaddilari bilan gender tenglik masalalari bo‘yicha uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda Jamiyat hamda uning tarkibiy tashkilotlarining gender masalalari bo‘yicha ma’sul xodimlar hamda Osiyo taraqqiyot banki vakillari ishtirok etishdi.





OTBning O'zbekistondagi vakolatxonasi gender masalalari bo'yicha eksperti – Fayzullayeva Eleonora tayyorlangan o'z taqdimotida gender tenglik va gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyillari, energetika sohasida gender tenglik bo'yicha dolzarb muammolar, kasbiy malakalar va boshqa masalalarga alohida to'xtaldi. Shuningdek, amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar yuzasidan tavsiyalar berdi.

Qiziqarli va do'stona tarzda o'tgan uchrashuvda tomonlar hamkorlikda qilinishi lozim bo'lgan masalalarni aniqlab oldi.




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ENERGETIKA VAZIRLIGI



HUDUDIY
ELEKTR
TARMOQLARI

**2024-YILNING 17-OKTABR KUNI
ENERGETIKA VAZIRLIGIDA SOHA XODIMLARI
UCHUN "ENERGETIKA SOHASIGA GENDER
YONDASHUVINI JORIY ETISH"
MAVZUSIDA SEMINAR BO'LIB O'TDI**





Ushbu seminarda Energetika vazirligi va tizim tashkilotlari, shuningdek barcha aksiyadorlik jamiyatlarining gender siyosatini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan vakillari ishtirok etdilar.

Seminar Energetika vazirligining O'zbekiston energetika sohasini isloh qilish dasturi doirasida, Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida bo'lib o'tdi.



Ishtirokchilar gender tengligi, energetika siyosatiga gender istiqbolini joriy etish uchun qulay muhitni baholash va boshqa bir qator tushunchalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldilar.

Shuningdek, seminar davomida energetika tashkilotlarida gender yondashuvini joriy etish va gender sezgirligining global tendensiyalari mavzularida ham fikr almashildi.

Tadbir so'ngida tomonlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi va boshqa ko'plab masalalar haqida fikr almashishdi.






**JORIY YILNING 23-25-SENTABR KUNLARI
“HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ MASLAHAT
KENGASHI VAKILI OLMAOTA SHAHRIDAGI
ENERGETIKA VA KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETIDA
“MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING ENERGETIKA
SOHASIDA AYOLLARNING O’RNI” MAVZUSIDA
O’TKAZILGAN XALQARO FORUMDA ISHTIROK ETDI**



AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligining (USAID) “Markaziy Osiyo energetikasi” loyihasi doirasida o’tkazilgan ushbu tadbirda Markaziy Osiyo davlatlarining energetika kompaniyalari vakillari bilan bir qatorda “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ vakili ham faol ishtirok etdi.

Ikki kun davomida o’tkazilgan mazkur tadbirda, energetika sektorida Gender tenglikni ta’minlash masalalari, ayollar o’rtasida kasbiy salohiyatni oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish kabi masalalar atroflicha muhokama qilindi. Tadbir davomida ishtirokchilar guruhlariga bo’linib, qiziqarli so’rovnomalar, psixologik treninglar uyushtirildi.

Forum yakunida ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi.





**“HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ
XOTIN-QIZLARNI YANADA QO‘LLAB-
QUVVATLASH BO‘YICHA MANZILLI DASTUR
ISHLAB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI
YUZASIDAN O‘TKAZILGAN YIG‘ILISH**



Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Xotin-qizlar kengashi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son farmoni ijrosini ta‘minlash yuzasidan Jamiyatda olib borilayotgan amaliy ishlarga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi.



Tadbirni Jamiyat Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilot raisi Saodat Ibragimova kirish so‘zi bilan ochar ekan, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ markaziy apparati hamda tarkibiy korxonalarida bugungi kunda Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlari faoliyati samarali yo‘lga qo‘yilgani, ularning asosiy vazifalari sirasiga mehnat jamoalarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma‘naviyatini yuksaltirish hamda oilalarda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashdagi rolini kuchaytirish ishlariga hissa qo‘shishdan iborat ekanligiga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Ta'kidlanganidek, Jamiyatda mehnat qilayotgan xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollar murojaatlari bilan ishlash, oilada ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, xotin-qizlarning muammolari, xususan, oliy ta'lim muassasalariga imtiyoz asosida o'qishga kirish, bundan tashqari, ayollar qonuniy manfaatlarini himoya qilish, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish kabi yo'nalishlarda manzilli ishlar olib borilishi zarur.

